

«T A S D I Q L A N G A N»
O'zbekiston Respublikasi QvaSX
Vazirligi Davlat veterinariya
Bosh boshqarmasi tomonidan
8 aprel 2009 yilda.
O'zR QvaSXV DVBB qoshidagi ITK
20.09.2008 yildagi № 28-sonli bayonnoma.

**HAYVONLARNING ENDO- VA EKTOPARAZITAR KASALLIKLARINI DAVOLASH UCHUN KLOZANTEL 50
PREPARATINI (INYEKSIYA UCHUN ERITMA) QO'LLASH BO'YICHA YO'RIQNOMA**

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

1.1 «Klozantel 50».

1.2 Preparat tashqi ko'rinishiga ko'ra shaffof, och sariq rangdan sariq ranggacha, o'ziga xos kuchsiz hidli steril eritmadan iborat. 1 ml preparat tarkibida 50 mg klozantel mavjud.

1.3 «Klozantel 50» gemetik yopilgan shisha flakonlarga yoki polimer idishlarga 10, 20, 50, 100, 200 va 250 ml dan qadoqlangan holda ishlab chiqariladi.

1.4 Preparatni B ro'yxati bo'yicha quruq va qorong'i joyda, bolalar yeta olmaydigan joyda, +4°C dan +25°C gacha haroratda saqlash lozim.

Preparatning yaroqlilik muddati 3 yil.

2. FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARI

2.1 Klozantelning ta'sir etish mexanizmi parazitning oksidlovchi fosforillash jarayonining to'xtatilishidan iborat. Preparatning o'ziga xos ta'siri ATF fermentini kuchaytirishdan iborat, bu esa fosforillash va elektronlarning o'tishi jarayonining to'xtatishiga olib keladi, bu holat parazitning energetik metabolizmini o'limiga olib keladigan tarzda o'zgartiradi.

2.2 Parenteral kiritilganidan keyin preparat inyeksiya joyidan tez so'rilib, hayvonlarning a'zolari va to'qimalariga o'zlashadi.

2.3 Preparatning qondagi maksimal konsentratsiyasiga kiritishdan keyin 12 soat ichida yetadi va 24-36 soat davomida saqlanadi. Preparatning davolash konsentratsiyasi hayvon organizmida 10-11 sutka davomida saqlanadi.

2.4 Klozantel organizmda amalda biotransformatsiya bo'lmaydi va asosan o'zgarilmagan shaklida chiqariladi.

3. QO'LLASH TARTIBI

3.1 Yirik qoramolga preparat oshqozon-ichak nematodozlari (gemonxoz, bunostomoz, ezofagostomoz, strongiloidoz, trixotsefalyoz, kooperioz va hokazo), fastsiolyoz, paramfistomatodozlar, telyazioz, qo'tirlar holatida va iksoz kanali bilan kurashish uchun qo'llanadi. Echkilar va qo'ylarga preparat oshqozon-ichak nematodozlari, fastsiolyoz, paramfistomatodozlar, dikrotselioz, qo'tirlar va estroz holatida qo'llanadi.

3.2 Preparat kavsh qaytaruvchi hayvonlarga mushak ichiga yoki teri ostiga kiritiladi.

3.3 Fastsiolalar ko'p miqdorda yuqqa holatda preparatning bir marotabalik dozasi ikkiga bo'linadi va hayvonlarga preparatning yarim dozasi ikki kun ketma-ket kiritiladi.

Preparatni hayvonlarga qo'llash dozalari:

Hayvon turi va parazitning nomi	Do'zalari	
	Klozantel-50	Klozantel (ADV)

Yirik qoramol:

- fastsiolyoz, paramfistomatodozlar, oshqozon-ichak nematodozlari (gemonxoz, ezofagostomoz, bunostomoz, strongiloidoz, trixotsefalyoz, kooperioz va hokazo), telyazioz	Hayvonlarning 10 kg tana vazniga 0,5 ml	Hayvonlarning 1 kg tana vazniga 2,5 mg
- iksoz kanali hujum qilganda	Hayvonlarning 10 kg tana vazniga 0,5 ml	Hayvonlarning 1 kg tana vazniga 2,5 mg
- qo'tirlar: sarkoptoz, psoroptoz, xoriopoz (yosh yirik qoramollarda)	Hayvonlarning 10 kg tana vazniga 1 ml dan, ikki marotaba, 7 kun oralig'i bilan	Hayvonlarning 1 kg tana vazniga 5,0 mg
- 2- va 3- bosqichdagi lichinkalar tomonidan qo'zg'atilgan gipodermatoz	Hayvonlarning 10 kg tana vazniga 1 ml, bir marotaba	Hayvonlarning 1 kg tana vazniga 5,0 mg

Mayda shoxli mol:

-fastsiolyoz, paramfistomatodozlar,dikrotselioz	Hayvonlarning 10 kg tana vazniga 1 ml	Hayvonlarning 1 kg tana vazniga 5,0 mg
-oshqozon-ichak nematodozlari (gemonxoz, ostartagioz, strongiloidoz, ezofagostomoz, xabertioz, bunostomoz, trixostrogilyoz)	Hayvonlarning 20 kg tana vazniga 1 ml	Hayvonlarning 1 kg tana vazniga 2,5 mg
- qo'tirlar (psoroptoz, xoriopoz)	Hayvonlarning 10 kg tana vazniga 1 ml dan, ikki marotaba, 7 kun oralig'i bilan	Hayvonlarning 1 kg tana vazniga 5,0 mg
- estroz	Hayvonlarning 20 kg tana vazniga 1 ml	Hayvonlarning 1 kg tana vazniga 2,5 mg

3.4 Agar dozaning umumiy kiritiladigan hajmi 10 ml dan oshsa, preparat ikkita turli joyiga kiritiladi.

3.5 Nojo'ya ta'siri. Ba'zi holatlarda inyeksiya joyida achishish paydo bo'lishi mumkin, u davolashsiz tuzalib ketadi.

3.6 Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar. Preparatning komponentlariga yuqori sezgirlik.

Preparat kuchsizlangan va yuqumli kasalliklarga uchragan hayvonlarga qo'llanmaydi.

Sog'iladigan sigirlarga va homiladorlikning oxirgi uchdan bir qismida qo'llash taqiqlanadi.

Boshqa parazitlarga qarshi preparatlar bilan birga kiritilmasin.

Parazitlarga qarshi xlororganik va fosfororganik preparatlar bilan bir vaqtda qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.

3.7 Sutni oziq-ovqat maqsadlari uchun hayvonlarga preparatni oxirgi marta kiritishdan 14 kundan keyin, go'shtni 28 kundan keyin ishlatish mumkin.

4. SHAXSIY PROFILAKTIKA CHORALARI

4.1 Preparatni qo'llash paytida shaxsiy gigiyena choralari va xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish lozim.

5. E'TIROZLARNI BILDIRISH TARTIBI

5.1 Preparat mazkur Yo'riqnomaning talablariga mos kelmagan holda, uni qo'llash to'xtatiladi, bu haqda O'zbekiston Davlat veterinariya preparatlarining ilmiy-nazorat laboratoriyasiga quyidagi manzil bo'yicha bildiriladi: 700178, Toshkent shahri, A. Yunusov ko'chasi, 1a-uy. Tel./faks: 228-76-14, 229-30-47. E-mail: uzgnkl@rambler.ru. Ayni paytda laboratoriya manziliga laboratoriya bilan avvaldan kelishilgan miqdorda preparatning ochilmagan o'rnlari, va preparatning Yo'riqnoma talablariga mos kelmasligi xususiyatlarining batafsil ta'rifi yuboriladi.

Ishlab chiqaruvchi:

O'zbekiston-Buyuk Britaniya-Rossiya Qo'shma Korxonasi

«O'ZBIOKOMBINAT» MChJ
140532, O'zbekiston Respublikasi,
Samarqand viloyati, Pstdarg'om tumani,
«Namuna» QFY, O'rta - Charxin mahallasi,
Tel: +998 (95) 500 8161
Sotuv bo'limi: +998 (95) 509 0500

www.biokombinat.uz

info@biokombinat.uz

TS 00483044-15:2016

